

“SHARQ RENESANSI” DAVRI MAVZUSINI “FIKRIY HUJUM” METODIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO’LLARI

Gadayeva Munira

Osiyo xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası katta o’qituvchisi.

Azimova Zebiniso

Buxoro tuman 20- maktab tarix fani o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578913>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Sharq renessansi” davri mavzusini “Fikriy hujum” metodidan foydalanishning samarali yo’llariga doir ma’lumotlar berilgan

Kalit so’zlar: Uyg’onish davri, Sharq sivilizatsiyalari, “Fikriy hujum”, metod, milliy-ma’naviy qadriyatlar.

EFFECTIVE WAYS TO USE THE "THOUGHTSTORM" METHOD ON THE THEME OF THE "EASTERN RENAISSANCE" ERA

Abstract. This article provides information on effective ways to use the “Thoughtstorm” method on the topic of the “Eastern Renaissance” peri.

Key words: Renaissance, eastern civilizations, “Brainstorming” method, national and spiritual values.

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА «МЫСЛИТЕЛЬНАЯ БУРЯ» НА ТЕМУ ЭПОХИ «ВОСТОЧНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ».

Аннотация. В данной статье представлена информация об эффективных способах использования метода «Мыслительный шторм» на тему периода «Восточного Возрождения».

Ключевые слова: Ренессанс, восточные цивилизации, “Мозговой шторм” метод, национально-духовные ценности.

Hammamizga ma’lumki, IX-XII asrlarda O’rta Osiyo hududida birinchi Renessans (Uyg’onish davri) davri sodir bo’ldi. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma’naviy yuksalish (14—16-asrlar) ga nisbatan qo’llanilgan, uni o’rta asrchilik turg’unligidan yangi davrga o’tish bosqichi deb baholaganlar. Ammo Renessans, ya’ni Uyg’onish faqat Yevropa hodisasi emas. Movaraunnahrda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9—12-asrlar) ulkan madaniy ko’tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot rivojlanib, ilg’or insonparvarlik g’oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. “O’rta Osiyoda birinchi Renessans davrida davlat boshqaruvi taraqqiyoti” mavzusidagi mazkur bitiruv malakaviy ishida Arab xalifaligi hukmronligidan nihoyasiga yetganidan (IX asr) so’ng, O’rta Osiyoda yuz bergan birinchi Renessans davrida vujudga kelgan davlatlar va ularning davlat boshqaruvi shakli, tuzilishi haqida batafsil ma’lumotlar berib o’tilgan.

Sharqda mavjud bo’lgan ilk o’rta asrlar sivilizatsiyasi butun g’arbga ijobiy ta’sir o’tkazgan, keyinchalik g’arbda shakllangan sivilizatsiya Sharq taraqqiyotiga o’z ijobiy ta’sirini o’tkazgan va shu asnodan sivilizatsiyalar millat, xalq va mamlakatlarning o’zaro yaqinlashuvida ham ijobiy ahamiyatga ega bo’lib kelgan. G’arb va Sharq sivilizatsiyalarining o’zaro bir-biriga ta’siri, bir-

birini boyitishi insoniyat taraqqiyotining muhim ma'naviy omilidir. Sharq sivilizatsiyasidagi o'z mohiyatiga ko'ra insonparvarlik xarakteriga ega bo'lgan qadriyatlar jahon sivilizatsiyalar rivojlanishida barqarorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, IX-XV asr musulmon tarixiy-falsafiy merosi, Sharq, aniqrog'i Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o'rta asrlar va Uyg'onish davri Ovrupa falsafiy tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri hamda ahamiyatini ochib berish xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashga samarali xizmat qilishi shubhasizdir.

Jahon fani rivojida Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va ko'plab bobokalonlarimizning durdona asarlari milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz bo'lib, ularning beqiyos ilmiy-ma'rifiy kashfiyotlarisiz fan bir muncha achinarli holga tushib qolgan bo'lar edi. Bu fikrni tarix ham isbotlaydi. Ushbu mavzuni «Fikriy hujum» metodi orqali tashkil etishda, o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonida faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yechishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. «Fikriy hujum» metodi. A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir.

Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog'ida ta'lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. 3. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi. Mazkur metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish hamda ta'lim oluvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga 2 qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir. Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi.

Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Ruhij jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'zida birlashtirgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarni shakllantirish.

2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularni to'g'rilik darajasi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish. Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yoʻnalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashgʻulotlar jarayonida birdik muvaffaqiyatli qoʻllash mumkin.

Metodni qoʻllash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

Oʻquvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta oʻzlashtirilishiga erishish;

Vaqtini iqtisod qilish;

Har bir oʻquvchini faollikka undash;

Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Koʻrinib turibdiki ushbu metod taʼlim oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta oʻzlashtirilishiga erishish, vaqtini iqtisod qilish, har bir taʼlim oluvchini faollikka undash, ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi. Maskur uslublardan tashqari juda koʻp metodlar ham mavjudki ulardan oʻqituvch dars mavzusiga mos uslubni tanlay bilishi oʻta muhimdir. Quyida keltiriladigan dars ishlanmalar namuna sifatida berilmoqda.

Keltirilgan mavzular ayrim maktablarda oʻqituvchining darsni tashkil etish mahoratiga qarab oʻquvchilar tomonidan yengil oʻzlashtirilishi mumkin. Aksariyat oʻquvchilar tomonidan mazkur darslarni oʻzlashtirishi qisman qiyin kechayotgani tajribada koʻrilmoqda. Shuningdek, dars ishlanmani turli usulda shakllantirishni mumkinligi eʼtiboringizga havola etildi.

REFERENCES

1. Yusuf xos Hojib Qutadgʻu bilig. T., 1991 9-bet Азамат Зиё.
2. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. 128-130 бб
3. Yusuf Hos Hojib. Qutadgʻu bilig T., 1991 5-6 betlar
4. B. Eshov. Oʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi T. 2014 180-bet
5. Azamat Ziyoy Oʻzbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq”, 2001. 114-bet.
6. Muxamedovna, G. M. (2023). XXI ASR KÓNIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNING MUAMMO VA YECHIMLARI. *World scientific research journal*, 20(1), 135-138.
7. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TEXNOLOGIYARNI OʻZLASHTIRISHDA TALABALARNING KREATIVLIK SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 3-6.
8. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
9. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
10. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.

11. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
12. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
13. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). HISTORY OF PATRIOTIC WOMEN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69–75. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-12>
14. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
15. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
16. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
17. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>
18. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
19. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722–727.